


## 2020- YILDA TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT MUASSASALARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### MUZEYLAR

Toshkent shahrida 2020- yilda jami muzeylar soni 29 tani tashkil etgan. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 301,6 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 59,7 % ni tashkil etgan.

**2010-2020- yillarda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar soni,  
birlikda**



Bugungi kunda shahrimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2020- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 1041,0 mingtani tashkil etgan. Noyob eksponatlar soni esa, 103,5 mingtaga teng. Muzey eksponatlarining 10,3 mingtasi rassomlik, 24,0 mingtasi grafika, 1,7 mingtasi haykaltaroshlik, 29,8 mingtasi amaliy san'at, 121,0 mingtasi numizmatika, 97,1 mingtasi arxeologiya buyumlari hamda 107,0 mingtasi suratlar, 129,6 mingtasi hujjatlar va 493,0 mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.


## TEATRLAR

2020- yilda shahrimizdagи jami teatrlar soni 18 tани tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010- yilga nisbatan teatrlar soni 4 taga oshganligini ko'rsatadi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa, 1652 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 281,7 ming nafarni tashkil etgan.

### Teatrlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2010- y.	2015- y.	2017- y.	2018- y.	2020- y.
Teatrlar soni, birlikda	14	19	19	18	18


**2016-2020- yillarda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlar soni, birlikda**



Teatrlar soni tumanlar kesimida tahlil qilinganida, eng yuqori ko'rsatkich Shayxantohur tumani (7 ta teatr) ulushiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rnlarda Mirobod tumanida 5 ta, Chilonzor tumanida 3 ta, M.Ulug'bek tumanida 2 ta hamda Yakkasaroy tumanida 1 tadan teatr mavjud.

Toshkent shahridadagi mavjud jami 18 ta teatrlar janri bo'yicha taqsimlanganida, drama teatri 8 tani tashkil etib, teatrlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, musiqali teatr – 5 ta, bolalar uchun qo'g'irchoq teatri – 2 ta, yosh tomoshabinlar teatri – 2 ta va 1 ta opera va balet teatri mavjud.

### 2020- yilda teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yilda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 1652 tani tashkil etib, qishloq aholisi uchun taqdim etilgan spektakllar soni 5 taga (1,3 %) teng. 2020- yilda bepul namoyish etilgan spektakllar soni 17 tadan iborat. 2020- yilda jami teatr xodimlari soni 1036 nafarga teng bo'lib, shundan ayollar ulushi 54,1 % (560 kishi) ni tashkil etgan.

### KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK

Toshkent shahrida 2020- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 37 ta. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2019- yilda 3681 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilga kelib esa konsertlar soni 72,8 % (684


ta) ga kamaygan. Shuningdek, tinglovchilar soni 2020- yilda jami 184,5 ming nafarga teng bo'lgan.

### **2016-2020- yillarda Toshkent shahrida konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>2016- y.</b>	<b>2017- y.</b>	<b>2018- y.</b>	<b>2019- y.</b>	<b>2020- y.</b>
Konsert tashkilotlari soni, birlikda	40	35	34	37	37
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, ming kishi	996,0	656,0	699,8	915,8	184,5
Konsertlar soni, birlikda	724	690	675	939	255

2020- yilda konsert tashkilotlarining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganida, gastrol-konsert tashkilotlari – 26 tani, mustaqil jamoalar – 8 tani, filarmoniya – 1 tani hamda konsert zallari – 2 tani tashkil etgan.

#### **2020-yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari, *birlikda***




Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, 2020- yilda konsert tashkilotlarining faoliyat turi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich gastrol-konsert tashkilotlari ulushiga to'g'ri keladi (26 ta). Filarmoniya konsert tashkilotlari tomonidan 195 ta, gastrol-konsert tashkilotlari tomonidan 34 ta, mustaqil jamoalar tomonidan 19 ta konsertlar namoyish etilgan. Tinglovchilar soni bo'yicha taqsimlanganida, filarmoniya (70,0 ming kishi) va gastrol-konsert (78,7 ming kishi) tashkilotlarining ulushi yuqori ko'rsatkichga ega.

2020- yilda konsert tashkilotlarining umumiy shtatdagi artist xodimlari soni 922 kishidan iborat, shundan, ayollar ulushi (526 nafar) jamiga nisbatan 57,0 % ni tashkil etgan.


Toshkent shahrida sirk o'z faoliyatini olib boradi. 2020- yilda sirkdagi namoyishlar soni 427 tani tashkil etgan. Namoyishlarda ishtirok etgan tomoshabinlar soni esa 160,0 ming kishini tashkil etgan. Shtatdagi artist xodimlar soni jami 175 nafarga teng bo'lib, umumiy soniga nisbatan artist ayollar ulushi (81 nafar) 46,3 % ni tashkil etadi.

### 2020- yilda sirk faoliyati



### Toshkent shahridagi botanika va hayvonot bog'lari

Toshkent shahrida 1 ta hayvonot bog'i o'z faoliyatini olib bormoqda.



Hayvonot bog'larida mavjud bo'lgan turli xildagi hayvonot va o'simlik namunalari o'zining beqiyosligi bilan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalg etadi. Hayvonot bog'larida jami 330 ta hayvon namunalari turlari hamda 251 ta o'simlik namunalari turlari mavjud.

Hayvonot dunyosiosi namunalari turlari: sudralib yuruvchilar soni – 5 ta, parrandalar – 105 ta, sut emizuvchilar soni – 66 ta, baliqlar – 98 tani tashkil etadi.

### 2020- yilda hayvonot bog'laridagi hayvonot dunyosi namunalari turlari soni, birlikda



Botanika bog'i O'rta Osiyo hududidagi eng katta bog' hisoblanadi. Umumiy yer maydoni 66,0 gettarni tashkil etib, Toshkentning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Botanika bog'i tirk tabiat muzeyi hisoblanib, tashrif buyuruvchilar o'simliklar olami bilan tanishibgina qolmasdan, tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'lismeni ham o'rjanadigan joy hisoblanadi. Botanika bog'ining asosiy qismi Shimoliy Amerika, Yevropa, Qrim, Kavkaz, Uzoq Sharq, Sharqiy va Markaziy Osiyo dendrofloralariga ajratilgan.


2020- yilda Botanika bog'iga 103,4 ming kishi tashrif buyurib, shundan 24,5 % (25,3 ming nafar) i bolalardan iborat. Botanika bog'ida 2020- yilda o'tkazilgan ekskursiyalar soni 300 tani tashkil etib, shundan o'quvchilar uchun 200 ta ekskursiyalar o'tkazilgan.

## MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI

2020- yilda Toshkent shahrida jami 27 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud.

2020 - yilda istirohat bog'laridagi jami attraksionlar soni 340 tani tashkil etgan.

### Madaniyat va istirohat bog'lariga tashrif buyuruvchilar soni *ming kishi birlikda*



Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 1237,0 ming kishini tashkil etib, shundan tashrif buyuruvchilarning 50,2 % i bolalar (622,0 ming nafar) dan iborat.

2020- yilda madaniyat va istirohat bog'laridagi umumiy ishchi xodimlar soni 593 kishini tashkil etgan, ulardan 151 nafari yoki 24,5 % i ayollardan iborat.

## MADANIYAT MARKAZLARI

### 2020-yilda madaniyat markazlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	Muassasalar soni, birlikda	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlikda	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, ming kishi
Toshkent sh.	33	1420	291,1

Madaniyat markazlarida jami 1420 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 623 ta ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 428 ta mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 121 ta teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 238 ta konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 291,1 ming kishini tashkil etgan.